



**INNOVATIVE
PUBLICATION**

Fast, high-quality, and reliable!

JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH OF UZBEK SCHOLARS

O'ZBEKISTON OLIMLARI: ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

 innopublication.com

QABUL YO'NALISHLARI:

- Tabiiy va aniq fanlar
- Texnika va muhandislik fanlari
- Tibbiyot va sog'liqni saqlash fanlari
- Ijtimoiy va gumanitar fanlar
- Iqtisodiyot, boshqaruv va biznes tadqiqotlari
- Ta'lim, pedagogika va psixologiya
- Qishloq xo'jaligi, ekologiya va atrof-muhit tadqiqotlari



O'ZBEKISTON OLIMLARI: ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI-ilmiy-uslubiy jurnali
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026

Ushbu to'plamda “**O'ZBEKISTON OLIMLARI: ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI**” ilmiy-uslubiy jurnalining 2026-yil 4-soniga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Bosh muharrir: Saliyev Dilmurod Qodirovich- Andijon davlat tibbiyot instituti Oilaviy shifokorlar tayyorlash kafedrasida dotsenti, Phd

Jurnal quyidagi sohalarda maqolalar qabul qiladi: Tabiiy va aniq fanlar, texnika va muhandislik fanlari, tibbiyot va sog'liqni saqlash fanlari, ijtimoiy va gumanitar fanlar, iqtisodiyot, boshqaruv va biznes tadqiqotlari, ta'lim, pedagogika va psixologiya, qishloq xo'jaligi, ekologiya va atrof-muhit tadqiqotlari

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, Google Scholar, Zenodo, Open Aire, Sindex xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

Jurnal materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollej o'quvchilari, maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlarimumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar

“INNOVATIVE PUBLICATION” MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI



Experiences in Developing Creative Thinking in Foreign Countries and Prospects for Their Integration into the Education System of Uzbekistan

Khursanboeva Farida Sokhibnazar kizi

Samarkand branch of Kimyo international university in Toshkent

e-mail: fxursanboyeva@gmail.com

Abstract: This article examines the theoretical foundations of creative thinking development and analyzes approaches aimed at fostering it in the education systems of developed countries such as the USA, Finland, Singapore, South Korea, and Japan. The main objective of the study is to conduct a comparative analysis of advanced pedagogical practices and to identify effective mechanisms for their adaptation to the education system of Uzbekistan. The research employed comparative-analytical, systemic, and interpretative methods. The results indicate that the development of creative thinking in modern education systems is closely linked to student-centered approaches, interdisciplinary integration, and the use of digital technologies. It is concluded that the adaptive integration of foreign experience can enhance the effectiveness of the national education system.

Keywords: creative thinking, education system, PBL, STEAM, critical thinking, integration, innovation, metacognitive approach.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijodiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlar — AQSh, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Yaponiya ta'lim tizimlarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ilg'or pedagogik tajribalarni qiyosiy tahlil qilish va ularni O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirishning samarali mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, tizimli va interpretativ metodlardan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim tizimlarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish o'quvchi markazli yondashuv, fanlararo



integratsiya va raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq. Xulosa sifatida, xorijiy tajribalarni adaptiv integratsiya qilish orqali milliy ta’lim samaradorligini oshirish mumkinligi asoslandi.

Kalit so‘zlar: ijodiy fikrlash, ta’lim tizimi, PBL, STEAM, tanqidiy fikrlash, integratsiya, innovatsiya, metakognitiv yondashuv.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические основы развития творческого мышления, а также анализируются подходы к его формированию в образовательных системах развитых стран — США, Финляндии, Сингапура, Южной Кореи и Японии. Основная цель исследования заключается в проведении сравнительного анализа передового педагогического опыта и определении эффективных механизмов его адаптации к системе образования Узбекистана. В ходе исследования использовались сравнительно-аналитический, системный и интерпретативный методы. Результаты показали, что развитие творческого мышления в современных образовательных системах тесно связано с ученико-ориентированным подходом, междисциплинарной интеграцией и использованием цифровых технологий. В заключение обосновано, что адаптивная интеграция зарубежного опыта способствует повышению эффективности национальной системы образования.

Ключевые слова: творческое мышление, система образования, PBL, STEAM, критическое мышление, интеграция, инновации, метакогнитивный подход.

Ключевые слова: творческое мышление, инновации, STEAM, интеграция, метакогниция.

Kirish qismi: Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida inson kapitalining sifati davlatlarning barqaror rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimida ijodiy fikrlashni shakllantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-iqtisodiy zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda.



Ijodiy fikrlash — bu shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yondashish va mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatidir. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy reproduktiv ta’lim modeli ijodiy tafakkurni yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimlarida konstruktivistik, interfaol va innovatsion yondashuvlar ustuvorlik kasb etmoqda.

Mazkur maqolaning dolzarbligi xorijiy ilg‘or tajribalarni ilmiy tahlil qilish orqali O‘zbekiston ta’lim tizimini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash bilan belgilanadi.

Asosiy qism: AQSh tajribasi (muammoli va loyiha asosida o‘qitish)

Amerika Qo‘shma Shtatlarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishda problem-based learning (PBL), project-based learning va critical thinking yondashuvlari keng qo‘llaniladi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar:

- real hayotiy muammolarni hal etishga jalb etiladi;
- guruhiy faoliyat orqali yangi g‘oyalar ishlab chiqadi;
- o‘z fikrini asoslab berishga o‘rganadi.

Shuningdek, Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlari — tahlil, sintez va baholash orqali ijodiy tafakkur rivojlantiriladi.

Finlyandiya tajribasi: integratsiya va erkin fikrlash

Finlyandiya ta’lim tizimi o‘quvchining shaxsiy rivojiga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Bu tizimda:

- fanlar integratsiyasi (masalan, matematika, san’at va tabiiy fanlar uyg‘unligi);
- erkin munozara va savol-javob metodlari;
- individual fikr bildirish imkoniyati ustuvor hisoblanadi.

Baholash jarayonida esa yakuniy natijadan ko‘ra o‘quv jarayoniga, ya’ni formatif baholashga ko‘proq e’tibor qaratiladi.

Janubiy Koreya tajribasi: STEAM va raqamli texnologiyalar



Janubiy Koreyada ijodiy fikrlashni rivojlantirishda STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi muhim o‘rin tutadi. Ushbu model:

- fanlararo bog‘liqlikni kuchaytiradi;
- muammolarni kompleks yondashuv asosida hal qilishga o‘rgatadi;
- innovatsion tafakkurni shakllantiradi.

Bundan tashqari, “Flipped classroom” modeli orqali o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi.

Singapur tajribasi: tanqidiy va ijodiy fikr uyg‘unligi

Singapur ta’lim tizimida Creative and Critical Thinking (CCT) modeli qo‘llaniladi.

Ushbu yondashuv quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- muammoga turli nuqtai nazardan yondashish;
- muqobil yechimlarni ishlab chiqish;
- “Nima bo‘lsa, agar...” kabi savollar orqali tafakkurni kengaytirish.

Shuningdek, SELC (Social-Emotional Learning Competencies) orqali o‘quvchilar uchun qulay psixologik muhit yaratiladi.

Yaponiya tajribasi: an’ana va innovatsiya uyg‘unligi

Yaponiyada ijodiy fikrlash “kaizen” — ya’ni doimiy takomillashuv tamoyiliga asoslanadi. Ta’lim jarayonida:

- guruhiy ishlar va hamkorlik;
- ijtimoiy mas’uliyat;
- muntazam o‘zini rivojlantirish muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston ta’lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlari:

Xorijiy tajribalarni milliy tizimga joriy etishda quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

1. Muammoli va loyiha asosida o‘qitish:

- o‘quvchilarni izlanishga undovchi topshiriqlarni ko‘paytirish;
- amaliy dars shakllarini rivojlantirish.



2. Metakognitiv yondashuvni rivojlantirish:

- o‘quvchilarning o‘z fikrlash jarayonini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish;
- mustaqil baholashni rivojlantirish.

3. Raqamli texnologiyalarni joriy etish:

- interaktiv vositalardan foydalanish;
- masofaviy ta’lim platformalarini keng qo‘llash.

4. O‘qituvchilarning malakasini oshirish:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rgatish;
- innovatsion metodikalarni amaliyotga joriy etish.

5. Milliy qadriyatlarni hisobga olish:

- xorijiy tajribani bevosita emas, balki moslashtirib qo‘llash;
- madaniy va ijtimoiy xususiyatlarni inobatga olish.

Xulosa: Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘quvchini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish va innovatsion metodlardan foydalanish zarur. Ushbu yondashuvlarni O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish orqali o‘quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini samarali rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bloom, B. S. Taxonomy of Educational Objectives. New York, 1956.
2. OECD. Future of Education and Skills 2030. Paris, 2019.
3. Bell, S. Project-Based Learning. The Clearing House, 2010.
4. Yakman, G. STEAM Education Framework, 2008.
5. Singapore Ministry of Education. 21st Century Competencies, 2015.
6. Internet manba: <https://www.oecd.org>



Linguistic and Artistic Analysis of Dialectal Words in the Works of Shukur Kholmirezayev

Second-year student of Termez State University

Choriyev Nurbek Jumanazar o'g'li

Annotation: This article provides a linguistic and artistic analysis of dialect-related words that are characteristic of Shukur Kholmirezayev's work, especially his stories. We also see the writer's skill in citing vocabulary specific to the Kipchak dialect. The main goal of this study is to convey the essence of this masterpiece to readers and make a small contribution to the field of literary studies.

Keywords: Sheva, dialect, linguoculturology, bo'yra, pocha, bo'tana, darcha, linguistic and literary analysis.

Shukur Xolmirzayev asarlarida shevaga oid so'zlarning lingvistik hamda badiiy tahlili

Termiz davlat universiteti 2-kurs talabasi

Choriyev Nurbek Jumanazar o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev ijodiga, ayniqsa, hikoyalariga xos bo'lgan shevaga oid so'zlarning lingvistik va badiiy tahlili beriladi. Shuningdek, yozuvchining qipchoq lahjasiga xos leksikalarning keltirishidagi mahoratini ham ko'ramiz. Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi ushbu durdona asarning asosini o'quvchilarga yetkazish hamda adabiyotshunoslik sohasiga oz bo'lsa-da hissa qo'shishdir.

Kirish so'zlar: Sheva, lahja, lingvokulturologiya, bo'yra, pocha, bo'tana, darcha, lingvistik va badiiy tahlil.

Аннотация: В статье дается лингвистический и художественный анализ диалектных слов, характерных для творчества Шукура Холмирзаева, особенно его рассказов. Мы также видим мастерство писателя в цитировании лексики, характерной для кипчакского диалекта. Основная цель данного исследования —



донести до читателей суть этого шедевра и внести хотя бы небольшой вклад в область литературоведения.

Ключевые слова: Говор, наречие, лингвокультурология, буйра, почта, бутана, дарча, лингвистический и художественный анализ.

Shukur Xolmirzayev asarlari o'zbek nasrida tabiiylik, hayotiylik va milliy ruhni ifodalashda alohida o'rin tutadi. Yozuvchining ijodida sheva unsurlarining qo'llanishi ayniqsa muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Avvalo, Xolmirzayev asarlarida sheva qahramonlarning individual xususiyatlarini ochishda xizmat qiladi. Har bir obraz o'ziga xos nutq bilan gavdalanadi va bu nutq orqali uning ijtimoiy kelib chiqishi, yashash muhiti hamda ichki dunyosi yaqqol ko'rinadi. Masalan, qishloq muhitida yashovchi oddiy insonlar nutqida mahalliy lahjaga xos so'z va iboralar qo'llanilib, obrazlar yanada jonli va ishonarli tasvirlanadi.

Ikkinchidan, sheva yozuvchining tasvirlayotgan muhitini real va tabiiy ko'rsatishga xizmat qiladi. Xolmirzayev ko'pincha qishloq hayotini, oddiy odamlar turmushini tasvirlagani bois, ularning nutqini adabiy tilga to'liq moslab yubormaydi. Aksincha, sheva elementlarini saqlagan holda, o'quvchini voqea sodir bo'layotgan makon va zamonga yaqinlashtiradi. Bu esa asarning badiiy ishonchliligini oshiradi.

Yana bir muhim jihat shundaki, sheva asarlarda milliy koloritni yaratadi. Yozuvchi o'z qahramonlari tilida xalqona iboralar, maqollar, kinoyali gaplardan keng foydalanadi. Natijada matnda xalq ruhiyati, urf-odatlar va dunyoqarashi aks etadi. Bu esa o'quvchida milliy o'zlikni anglash hissini kuchaytiradi. Bundan tashqari, sheva ayrim hollarda kulgi va istehzoni ifodalash vositasiga ham aylanadi. Qahramonlarning sodda, ba'zan qo'pol yoki kulgili nutqi orqali yozuvchi hayotdagi ayrim kamchiliklarni yumor bilan ochib beradi. Bu usul asarning ta'sirchanligini yanada oshiradi. Quyida yuqoridagi fikrlarimizni misollar bilan izohlaymiz:

Bo'tana – 1. Loyqa, qum, tuproq kabilar aralashgan (suv haqida). Bir joyga to'planib, tutqun bo'lib turgan bo'tana suv qirg'oqni buzib yubordi. E.Usmonov. Yolqin.



Soy va ariqlarda sumalakrang bo'tana shiddati oshib boradi, pishqiradi. S.Nurov, Narvon.

2. Loyqasimon, kir tusli, xira. Qiyom bo'tana bo'lmay, tiniq tusda bo'lishi lozim. K.Mahmudov, O'zbek taomlari.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 34-betdan)

Bo'yra – bo'yra, bordon; qamish. Tozalangan qamish cho'pidan to'qilgan to'shama. Eslaringizdami... Zokirxo'ja qassoblar gilam ustida o'tirganda, biz o'tirishga bo'yra ham topolmas edik. P.Tursun, O'qituvchi.

Gadoyboy bo'yraga chordana qurib o'tirdi-da, fotiha qildi. H.G'ulom, Feruza. Tolzordagi tepasi bo'yra bilan yopilgan yozlik choyxonada odam uncha ko'p emasdi. S.Ahmad, Saylanma.

Bir bo'yra 1) eni-bo'yi bo'yra hajmicha keladigan. Bir bo'yra yer. ...uyning orqa devori bir bo'yra eni kesib tushirilgan bo'lib, qorayib ko'rinardi. A.Qodiriy, O'tkan kunlar.

Bir bo'yra yerning pichani o'rib olinsa, bir mashina chiqaveradi. M.Ahmadjonov, Balli, zarbdorlar!

Rixsixon bir bo'yragina yerga ekilgan piyozni o'toq qilayotgan edi. S.Zunnunova, Go'dak hidi;

2) bir bo'yraning ustiga joy bo'ladigan. Bir bo'yra sholi. Bo'yra puli tarixiy. Eski maktablarda talabalar o'tiradigan bo'yralarni yangilash uchun vaqti-vaqti bilan otanalardan olingan pul. – Chog'imda, payshanba puli ham, supurgi puli ham, bo'yra puli ham olmasa kerak. Yo olarmikan-a? – Yo'g'e, o'libdimi! M.Ismoilij, Farg'ona tong otquncha.

Hozirgi eski maktablarimizda bolalar har payshanba non yoki nonning pulini olib boradilar. Bundan boshqa bo'yra puli, ko'mir puli... ham bor. Oybek, Tanlangan asarlar.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 34-betdan)

Yuqoridagi "bo'yra" so'zida qipchoq lahjasiga, ayniqsa, Surxondaryo hududiga mos insonlarning yashash tarzi aks etadi. Bu nafaqat lingvistik va badiiy tahlilnigina emas,



balki Surxon xalqining lingvokulturologik jihatini ham ochib beradi: janubiy viloyatlarning milliy koloritini ham ko'rsatib bermoqda. Tubanda yana ham tushunarliroq bo'lishi uchun shu kabi bir qator misollar:

Darcha – eshikcha. 1. Ilgari vaqtlarda deraza vazifasini o'tagan bir yoki qo'sh tabaqali eshikcha. Ota darvozaga tamba tirab, qo'shnining darchasidan o'tib, ko'chaga chiqdi. S. Nurov, Narvon.

To'tibu Zumradning qo'lidan xatni tortib olib, darcha tomon yugurdi. S. Zunnunova, Olov.

2. Eshik yoki devorga o'rnatilgan kichkina eshikcha yoki deraza. Ko'pincha yopiq bo'ladigan kassa darchasidan yoqimli zarhal nur tushib turadi. P. Qodirov, Uch ildiz. Ochiq darchaning yupqa romiga ikki tirsagi bilan tayanib, tashqariga ko'z soldi. A. Muxtor, Asarlar.

Darchalarga atlas va shoyi pardalar tutilgan. M. Osim, Karvon yo'llarida.

3. Ko'chma: foydalanish, kirish imkoni; yo'l. Dasturxon ustida qizidi suhbat. Ochdi go'yo birdan fan darchasini. M. Ikrom.

Qaysi bir odamning baxtiga yorsan, Ochildimi senga tole darchasi A. Oripov, Yillar armoni.

Ezgulik darchasin chertmadi bekor, Sokin kechib o'tdi o'tu suvidan. Otayor, Oq fasl. Biqinidan, peshonasidan (yoki qulog'ining tagidan) darcha ochib qo'ymoq - Qulog'ining tagiga bir tushirmoq; kaltaklab yoki sovuq qurol bilan jarohatlamoq (do'q, po'pisa iborasi). Hotam sho'ro ko'rib qolsa, naq peshonangdan darcha ochadi. M.M.Do'st, Lolazor.

Hozir peshonasidan darcha ochib qo'yamiz, ana undan keyin hech nima esidan chiqmaydigan bo'ladi. A. Ko'chimov, Halqa.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 60-betdan)

Pocha – kichik oyoq; oyoqning pastki qismi; qo'y va b. hayvonlar oyog'ining ovqat sifatida yeyiladigan pastki qismi.



1. Hayvonlar oyog'ining tizzadan pastki qismi. Bo'ri qo'yning pochasidan olibdi. Uloqchi, qamchinning dastasini tishlab, uloqning pochasidan tortadi. Gazetadan.

2. Oyoqning tizza bilan to'piq o'rtasidagi qismi; boldir. It pochamdan oldi. Nusratbekning tanidagi titroq biroz pasaydi. Sekin, salmoqli odimlab borayotib, o'z xatti-harakatini oqlashga urinib, o'ziga tasalli bera boshladi: «Yo'ldan chiqqan har qanday daydi laycha vovullab, pochamga yopishsa, indamay ketaveramanmi». S. Nurov, Narvon.

G'aybulla qizarib, o'rniga borib o'tirmoqchi edi, Hasan uning pochasiga yopishdi. S. Siyoev, Yorug'lik.

3. Shimning, shalvarning tizzadan pastki qismi. Nizomjon, sholikorlikka kiraman, deb shimining pochasini shimarayotgan edi, To'lanboyning o'g'li kelib qoldi. S. Ahmad, Ufq.

Og'zidagi nosini tupurib, bismillo, deganicha shimining pochasini shimarib, ketmon bilan o'raga tushdi. S. Ahmad, Saylanma.

4. Ustki uzun kiyimning etagiga tikilgan jiyak, hoshiya. - [Shoir] Shohi to'n ustidan.. qunduz pochasi bor po'stinini kiydi. Oybek, Navoiy.

5. Poya, oyoq. Stul pochasi. Ota pismiq kelib, karavotning pochasiga suyandi. E. Rahimov, Ajab qishloq.

6. Pillapoya, pog'ona. Mirziyod.. oyog'ini narvon pochasidan asta oldi. A. Mirahmedov, Kulgan chechaklar.

(Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 3-betdan)

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev asarlarida sheva unsurlarining qo'llanishi tasodifiy yoki faqat bezak vazifasini bajaruvchi hodisa emas, balki chuqur badiiy-estetik ahamiyatga ega muhim vositadir. Yozuvchi shevani o'z ijodiy konsepsiyasining ajralmas qismi sifatida qo'llab, asarlarida hayotiy haqiqatni yanada ishonarli va ta'sirchan ifodalashga erishadi. Eng avvalo, sheva orqali adib o'z qahramonlarini "tiriltiradi". Ularning nutqi sun'iy emas, balki real hayotdan olingan, tabiiy va jonli bo'lib eshitiladi.



Bu esa o'quvchiga obrazlarni nafaqat tushunish, balki ularni his qilish, ular bilan ma'naviy yaqinlik hosil qilish imkonini beradi. Natijada asardagi voqealar o'quvchi ongida oddiy tasvir emas, balki go'yo real hayot parchasidek gavdalanadi.

Shuningdek, sheva yozuvchi tasvirlayotgan ijtimoiy-madaniy muhitni chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Xolmirzayev qalamiga mansub qishloq hayoti tasvirlarida sheva o'sha makonning ajralmas belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Bu orqali muhitning ruhiyati, odamlarning dunyoqarashi, turmush tarzi va hatto ularning ichki kechinmalari ham yanada aniqroq aks etadi.

Bundan tashqari, sheva milliy o'zlikni saqlash va ifodalashning muhim vositasidir. Yozuvchi xalq tilining boy qatlamlarini asarlariga olib kirish orqali nafaqat adabiy til imkoniyatlarini kengaytiradi, balki xalqning og'zaki ijodiga xos ohang, ibora va ma'nolarni ham badiiy matnga singdiradi. Bu esa asarlarning milliy ruhini kuchaytiradi, ularni o'zbek adabiyotining betakror namunalariga aylantiradi.

Yana bir jihat shuki, sheva orqali muallif ayrim ijtimoiy muammolarni ham nozik tarzda yoritadi. Qahramonlar nutqidagi soddalik, ba'zan keskinlik yoki kinoya hayotdagi ziddiyatlarni yanada yorqinroq ko'rsatadi. Shu tariqa sheva nafaqat tasvir vositasi, balki muayyan g'oyani yetkazuvchi kuchli badiiy instrumentga aylanadi.

Umuman olganda, Shukur Xolmirzayev ijodida sheva — bu obraz yaratish, muhitni jonlantirish, milliy ruhni ifodalash va asarning umumiy badiiy ta'sirini oshirishga xizmat qiluvchi ko'p qirrali vositadir. Aynan shu xususiyat uning asarlarini o'quvchiga yaqin, samimiy va unutilmas qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Холмирзаев Шукур. Танланган асарлар: Ҳикоялар. –Т.: “Шарқ”2009.
2. Танланган асарлар: Ҳикоялар. –Т.: “Шарқ”2020.
3. То'хта Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. O'zbekiston nashriyoti. Toshkent-2002.
4. Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslikka kirish . Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent- 2004.



TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1.	Experiences in Developing Creative Thinking in Foreign Countries and Prospects for Their Integration into the Education System of Uzbekistan <i>Khursanboeva Farida</i>	3-7
2.	Linguistic and Artistic Analysis of Dialectal Words in the Works of Shukur Kholmirezayev <i>Nurbek Choriyev</i>	8-13

